

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Xamrayeva Shaxnoza Usmanovna

Xamrayeva_sh@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada turizm sohasida soliqlarning ahamiyati, soliq imtiyozlari berish orqali turizm bozorida tadbirkorlarga raqobatbardosh muhit yaratish va bu orqali mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy samara berishning muhim ekanligi, yo`llari tushuntirildi. Turizm iqtisodiyotimizdagi eng ko`p foyda olib kelishi mumkin bo`lgan soha ekanligi sababli ham turizm sohasida soliq yengilliklarini yaratishning imkoniyatlari keltirildi. Shuningdek, rivojlangan xorijiy davlatlarning huquqiy qiyosiy tahlillari hamda ilg`or tajribasi asosida yurtimizda turizmni rivojlantirish bo`yicha berilayotgan imtiyozlar va preferensiyalarning samaradorligini baholashga alohida e`tibor qaratilmoqda. Shuningdek, tadbirkorlar intizomli soliq to`lovchilar safini kengaytirish borasida yoritilgan.

Kalit so`zlar: byudjet siyosati, byudjet, soliq imtiyozlari, soliq ma`murchiligi, tadbirkorlik sub`ektlari, turizm, sayyohlar, infrastruktura, gidlik faoliyati, xorijiy davlatlar, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq, soliq stavkasi.

Annotation: this article explains the importance of taxes in the field of tourism, the importance, ways to create a competitive environment for entrepreneurs in the tourism market through the provision of tax benefits and, through this, a positive effect on the country's economy. Even because tourism is the sector that can bring the most benefits in our economy, the possibilities of creating tax relief in the tourism sector have been brought. Special attention is also paid to assessing the effectiveness of the benefits and preferences given for the development of tourism in our country on the basis of legal comparative analysis and advanced experience of developed foreign countries. Entrepreneurs are also covered in terms of expanding the ranks of disciplined taxpayers.

Keywords: budget policy, budget, tax benefits, tax administration, business entities, tourism, tourists, infrastructure, guiding activities, foreign countries, tax reporting, tax revenues, tax benefits, tax, tax rate.

KIRISH

Jahonda turizm sohasi barcha infratuzilmalarni rivojlantirishga bevosita va bilvosita ta`sir ko`rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida gavidalanadi. Zamonaviy turizm transport, ijtimoiy va xizmat ko`rsatish sohalarining yuqori darajada

rivojlanishiga asoslangan bo‘lib, bu oxir-oqibat uni iqtisodiyotning yuqori rentabelli sohasiga aylantiradi.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq turizm sohasini davlat tomonidan qo‘llab – quvvatlash, mazkur soha bilan shug‘ullanuvchi korxonalar imtiyozlar yaratib berish, shuningdek, turizm sohasi uchun infratuzilmani shakllantirish borasidagi ishlar jadal sur‘atlar bilan davom ettirilmoqda. Xususan, soliq imtiyozlarini joriy etish orqali imtiyozlarning soliq to‘lovchining moliyaviy faoliyatiga ta‘sirini tahlil qilish hamda samarasiz va maqsadsiz berilgan soliq hamda bojxona imtiyozlarini bekor qilish bo‘yicha bir qancha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tasdiqlanishi, shu jumladan Soliq kodeksining tegishli moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kirilmoqda.

Turizm davlat g‘aznasiga soliq ko‘rinishidagi pul tushumlari ko‘payishini ta‘minlaydi. Turizm sohasida juda ko‘p ish o‘rinlari turistik korxonalar rivojlanayotgan hududlarda paydo bo‘ladi. Bu esa iqtisodiy imkoniyatlarni muvozanatlashtirish, qishloq aholisini barcha qulaylikka ega shaharlarga qarab oqishining oldini olishga yordam beradi. Xalqaro turizm ham jahonda eksport tarmog‘i hisoblanadi va juda ko‘p mamlakatlarda to‘lov balansiga amal qilishda muhim omil sanaladi. So‘nggi yillarda turizm dunyoda aholi bandligining muhim generatoriga aylandi. U jahon infrastrukturasi katta miqdorda investitsiyalarni jalb etmoqdi. Bu esa mahalliy aholini ham, tashrif buyuruvchilarning ham turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF–4861-son Farmoni bilan turizm milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida belgilangandan keyin o‘tgan davr mobaynida sohasini rivojlantirish bo‘yicha tizimli islohotlar olib borilmoqda².

Turizm sohasining rivojlanishi turizm mahsulot va xizmatlariga bo‘lgan talab holatiga bog‘liqligi hamda turizm talabi narxga nisbatan yuqori egiluvchanlikka ega ekanligi ushbu sohani rivojlantirishda soliqqa tortish tizimining takomillashtirilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, turizm mahsulotlari va xizmatlari narxining o‘zgarishi mazkur soha sub’ektlariga bo‘lgan soliq yukining darajasi bilan mutanosib o‘zgaradi (WTTC, 2004).

Shundan kelib chiqqan holda, 2016 yil dekabridan 2020 yilning boshiga, ya‘ni koronavirus pandemiyasiga qadar mazkur sohani rivojlanishini jadallashtirish, xususan soha sub’ektlariga bo‘lgan soliq yukni kamaytirish va ularni turizm sohasidagi tegishli

¹ Timothy, D.J. and Olsen, D.H. (Eds) (2006), *Tourism, Religion and Spiritual Journeys*, Routledge, London and New York, NY.

² Alimova M.T. *Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida)* // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.

yoʻnalishdagi faoliyatini ragʻbatlantirish maqsadida ulariga jami 11 turdagi soliq imtiyozlari taqdim etildi. Biroq, soliq imtiyozlarini berish berish va ularning samaradorligini doimiy baholab borishning aniq uslubiyati va mexanizmi yoʻqligi sababli soliq imtiyozlarini berishning maqsadga muvofiqligi va ularning natijadorligi boʻyicha aniq xulosaga kelishda qiyinchilik tugʻdiradi.

Bu borada, mamlakat Prezidenti tomonidan taʼkidlanganidek, hozirgi vaqtda soliq imtiyozlarining samaradorligini baholab borish borasida aniq mezon, mexanizmlar va yagona uslubiyat mavjud emasligi ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirish, sogʻlom raqobat muhitini shakllantirishga toʻsqinlik qilmoqda (Qaror, 2019).

Shularni inobatga olgan holda, ushbu maqolada turizm sohasidagi soliq imtiyozlarining samaradorligi baholandi hamda uni takomillashtirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzu doirasida asosiy oʻrganiluvchi iqtisodiy kategoriya soliq imtiyozlari tushunchasi boʻlib, soliq imtiyozlariga nisbatan berilgan taʼriflarga batafsil toʻxtalsak.

Jahon tadqiqotlarida turizm sohasida alohida eʼtibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, hozirgi kunda rivojlangan davlatlar ilmiy tadqiqotlarida turizm sohasini ularning iqtisodiyotiga, ijtimoiy sohasiga, ekologiya va boshqa sohalarga taʼsiri oʻrganish boʻyicha bir qancha tadqiqotlar olib bormoqdalar. Ushbu tadqiqotlarning asosiy mazmunida ijtimoiy kapitalning turizm yoʻnalishida olib borilayotgan siyosatga mos tushadimi. Ushbu jumboqni ochib berishda bir nechta olimlar AQSh 3 ta shtati, Avstraliya va Okeaniya mamlakatlarida 74 qiziqish bildirgan tomonlar bilan tadqiqot oʻtkazilgan. Ushbu tadqiqot natijasiga koʻra ular oʻzaro bogʻliq boʻlib ijtimoiy kapitalning oʻsishi turizm sohasini rivojlanishiga bilvosita taʼsir oʻtkazishi asoslangan.

Kujel Yu. oʻzining darsligida turizm sohasini mamlakat ijtimoiy– iqtisodiy rivojlantirishdagi rolini ochib bergan. Bunda mamlakatning eng tez rivojlanadigan sohasi sifatida turizmga alohida eʼtibor qaratish zarurligini keltirib oʻtadi³.

I.A.Mayburov soliq imtiyozlarini qonun xujjatlarida belgilangan tartibda soliq toʻlash muddatini oʻzgartirish boʻyicha imtiyozlar olishga imkon beruvchi imtiyozlar hamda ular bir nechta shakllarga ajratiladi: soliq krediti, investitsion soliq imtiyozi, soliq taʼtili⁴.

N.V.Milyakova —soliq imtiyozi – soliq toʻlovchilarning alohida toifalariga boshqa soliq toʻlovchilar bilan taqqoslaganda afzalliklar taqdim etish, jumladan soliq yoki yigʻimni toʻlamaslik yoki ularni ozroq miqdorda toʻlash imkoniyati⁵.

³ Демченко Д.Н. Взаимодействие государства и бизнеса: принципы, инструменты, институциональная трансформация в посткризисной экономике. Автореф. дис. канд. экон наук. Ростов-на-Дону. – 2005. – С. 15.

⁴ Карманов А. О некоторых положениях правового регулирования туристического бизнеса в Краснодарском крае / А. Карманов, А. Трифонов // Кубаньбизнес. – 2010 – № 42. – С. 4-6.

⁵ Лебедев К.А. Совершенствование государственного регулирования в сфере туризма //Стратегия устойчивого развития регионов России. – 2014. – №. 24. – С. 139- 141.

F.Raxmatullaeva soliq imtiyoziga kategoriya sifatida quyidagicha ta'rif bergan: —imtiyozlar - bu iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida soliq to'lovchining soliq majburiyatlarini qonun tomonidan belgilangan shaklda butunlay yoki qisman kamaytirishning yo'llari, huquqlari va majburiyatlari majmuidir⁶.

A.S.Baladina bu borada quyidagicha ta'rif bergan: soliq preferensiyasi – davlat tomonidan soliq majburiyatini kamaytirish yuzasidan ayrim soliq to'lovchilar uchun majburiy tartibda, bajarilishi lozim bo'lgan taqdim qilinadigan ustuvorliklardir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida maqola doirasidagi ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy adabiyotlar, xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, dalillar to'plash va muammoni qo'yish kabi nazariy tadqiqot metodlari, shuningdek xronologik va amaldagi tendensiyalarni kuzatish va davr oralig'ida tadqiq qilish hamda qiyoslash kabi empirik tadqiqot metodlari qo'llanildi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida turizm sohasiga berilgan soliq imtiyozlarining samaradorligi o'rganib chiqildi va turizm sohasiga soliq imtiyozlariga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda turizm aholi bandligini ta'minlash va daromadlarni oshirish, mamlakat eksport salohiyatini yuksaltirish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Turizm insoniy resurslarning tarkibiy qismi sifatida quyidagi funksiyalarni amalga oshirish orqali iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Respublika iqtisodiyotida turizmni strategik darajaga ko'tarish, ichki turizm xizmatlari hajmini keskin ko'paytirish, fuqarolarni mamlakatimizning turizm salohiyati bilan tanishtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, taqdim etilayotgan turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish maqsadida qadar chora -tadbirlar oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 483-moddasiga asosan 2022 yil 1 yanvarga qadar bo'lgan davrda 2020 yil 31 dekabrda holatga ko'ra faoliyatni turizm sohasida amalga oshirayotgan tadbirkorlik sub'ektlari uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha soliq qarzini majburiy ravishda undirish, shuningdek quyidagilar bo'yicha penya hisoblash choralari ko'rilmaydi:

⁶ Tuxliev I.S., Hayitboev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 151-b.

2021 yil 31 dekabrgacha bo‘lgan davr uchun turoperatorlar, turagentlar va turizm sohasida mehmonxona xizmatlari (joylashtirish xizmatlari) ko‘rsatuvchi tadbirkorlik sub’ektlari:

foйда solig‘ini belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50 foiz kamaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi;

ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi;

yuridik shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqni va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi⁷.

Kodeksning 75-moddasiga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari turistik zonalarda joylashgan alohida sanatoriy-kurort ob‘ektlari egallagan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk solig‘i va yer solig‘ining kamaytirilgan soliq stavkalarini belgilash yoki soliq to‘lashdan ozod qilish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yilning 30 aprel kunidagi “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-232-sonli qarorining 1-bandiga asosan 2022 yil 1 iyundan boshlab «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!» dasturi doirasida⁸:

sayohat xarajatlarining bir qismi ish beruvchilarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplab beriladi. Qarorning 4-bandiga asosan 2022 yil 1 sentyabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!» dasturi doirasida respublika hududlari bo‘ylab ichki sayohatlarni amalga oshirish xarajatlarining bir qismini qaytarish («Cashback») tartibini joriy etish belgilangan. Xususan:

Sayohat xarajatlarini qaytarish ichki sayohatlarni rejalashtirish va mablag‘larni qaytarish hamda «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!» dasturi doirasida taqdim qilinadigan chegirmalar, tayyor turistik paketlarni mustaqil shakllantirishni nazarda tutuvchi elektron platforma, shu jumladan uning mobil ilovasi (keyingi o‘rinlarda — Platforma) orqali amalga oshiriladi;

Sayohat xarajatlarini qaytarish har bir turistga quyidagi miqdorlarda amalga oshiriladi:

aviaqatnov orqali borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 150 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;

temir yo‘lda yoki avtobusda borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 80 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;

joylashtirish vositasida tunab qolish xarajatining 15 foizi, lekin 80 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;

⁷ Raximov Z.O. Turizm sohasida mehmonxonalar xo‘jaligini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari.// Monografiya. – Samarqand: SamISI, 2021. 212 bet.

⁸ O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2020

teatr, muzey, sirk va badiiy galereyalarga har bir tashrif chiptasi narxining 50 foizi, lekin 20 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;

sayohat xarajatlari faqatgina Platforma orqali amalga oshirilgan ichki sayohatlar uchun uning yakuni bilan mahalliy turistlarning bank kartalariga qaytariladi;

Platforma Davlat soliq qo‘mitasining maxsus mobil ilovasi (SoliqUz) bilan integratsiya qilingan holda, xarajatlar haqqoniyligi mobil ilova yordamida tekshirilib, xarid chekinging matritsali shtrix kodini (QR-kod) hamda mahalliy turistlarning doimiy yashash joylarini ko‘rsatish orqali sayohatlar ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Turizm va madaniy meros vazirligiga 2022 yil 1 sentyabrga qadar Platformani ishlab chiqish va ishga tushirish;⁹

2022 yil 1 oktyabrga qadar joylashtirish vositalari, turoperator va turagentlar, gid (gid-tarjimon), yo‘riqchi-yo‘l boshlovchi va ekskursiya yetakchilari Platforma orqali o‘z xizmatlarini yo‘lga qo‘yishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish;

turizm sohasi sub’ektlari o‘rtasida Platforma imkoniyatlarini doimiy targ‘ib qilib borish;

Platformaga xizmat ko‘rsatish va keyinchalik modernizatsiya qilish hamda doimiy ravishda texnik qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rish vazifasi yuklatilgan.

Turizmning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish funksiyasi turizm sohasida mahsulotlarni ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish va shu orqali YaIMni yaratishda ishtirok etish orqali namoyon bo‘ladi. Jahonda turizm tarmoqlarida 9,2 trillion dollar yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) yaratilgan bo‘lib, YaIMning qariyb 10,5 %ini tashkil etadi (2020 yilda esa 4,7 trillion dollar qo‘shilgan qiymat yaratilgan va YaIMning 5,6 % ini tashkil etgan) . Hisob-kitoblarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2019 yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizmga 13,6 trillion so‘m miqdorida YaQQ yaratilgan bo‘lib, uning YaIMdagi ulushi 2,6 % (2020 yilda esa ushbu ko‘rsatkich 0,4 %)ni tashkil etdi¹⁰.

Mamlakatimizda turizm sohasidagi tadbirkorlar uchun keng qulayliklar yaratilgan bo‘lib qaysi soha va yo‘nalishda bo‘lmasin qator imtiyozlarga ega va unlardan erkin foydalangan holda faoliyat yuritib kelmoqda. Shunday imtiyozlardan biri, 2018-yil 7-fevralida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3514-sonli “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bo‘lib unda quydagi imtiyozlar 2018-yil 10-fevraldan boshlab 2025-yil 1-yanvargacha qadar belgilab o‘tilgan:

-ish beruvchining turizm sohasida faoliyat ko‘rsatish bo‘yicha litsenziyaga ega bo‘lgan subyektlardan xodimlar va ularning oila a‘zolari uchun respublika bo‘ylab turistik yo‘llanmalarni sotib olish xarajatlari xodimning daromadi sifatida ko‘rib

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy <http://www.soliq.uz> saytidagi ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

¹⁰ Raximov Z.O. Raqamli iqtisodiyotda raqamlashayotgan turizmning yangi turlarining rivojlanishi./ SamISida o‘tkazilgan «Turizmga innovatsion-investitsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari» mavzusida xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konfrensiyasi. (2020 yil, 3-iyun) – Samarqand: SamISI, 2020.

chiqilmaydi hamda yuridik shaxsdan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqishda chegirib qolinishi;

-jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlari O'zbekiston Respublikasi bo'ylab turistik yo'llanmalarni turizm sohasida faoliyat ko'rsatish bo'yicha litsenziyaga ega bo'lgan subyektlardan sotib olishga yo'naltirilgan xarajatlar summasiga kamaytiriladi. Bunda turistik yo'llanma (ayirboshlanadigan vaucher), avia va temir yo'l chiptalari, avtotransport tashkilotlarining hisob-fakturalari (chiptalari) va joylashtirish vositalari cheklari tasdiqlovchi hujjatlar hisoblanishi;

-turizm sohasida faoliyat ko'rsatadigan subyektlarning soliq solinadigan bazasi O'zbekiston turizm brendi va "Uzbekistan.travel" sayti reklamasi bo'lgan bosma mahsulotlarni (xaritalar, risolalar, bukletlar, flayerlar va boshqalar), suvenir va qadoqlash mahsulotlarini (sumkalar, paketlar, maktab daftarlari, yorliqlar, g'iloflar, kiyim-kechaklardagi va oshxona anjomlaridagi yozuvlar) tayyorlash va chop etishga yo'naltiriladigan xarajatlar summasiga kamaytirilishi keltirib o'tilgan.

Ushbu imtiyozlar 2018-yil 10-fevraldan boshlab 2025-yil 1-yanvargacha qadar amal qiladi. Tadbirkorlik faoliyatiga davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlardan foydalanish biznesingiz rivojiga va uning kengayishi uchun ajoyib imkoniyatlar eshigini ochdi.

O'zbekiston ulkan turizm va sog'lomlashtirish salohiyatga ega hamda respublika hududida 7 mingdan ortiq madaniy meros ob'ektlari mavjud. Bundan tashqari, 8 ta qo'riqxonalar, 2 ta tabiiy va 1 ta milliy bog', 6 ta tabiiy yodgorlik, 11 ta qo'riqxonalar, 50 dan ortiq suvni muhofaza qilish zonalari mavjud. Joriy yilning 8 oyida mamlakatga 3 mln xorijiy fuqarolar tashrif buyurgan bo'lsa, o'tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 1,9 barobarga yoki 1,5 million kishiga ko'paygan. Turizmni rivojlantirish doirasida joriy yil oxirigacha 490 ta loyihani amalga oshirish va 6 850 ta yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan. Keyingi yillarda turizmni rivojlantirishga doir 60 dan ortiq huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Turizm sohasi rivojlanishiga yangi tashkilotlar: Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi, Turizmni rivojlantirish instituti, Milliy PRmarkaz va boshqalar yordam bermoqda. Ekspertlar hisob-kitoblariga ko'ra: O'zbekistonda turizm milliy iqtisodiyotning "o'sish nuqtalaridan" biriga aylanib, yuqori multiplikativ effektga ega - turizmdan olinadigan to'g'ridan-to'g'ri daromadning 1 dollari iqtisodiyotning turdosh tarmoqlariga kamida 5-7 dollar beradi. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida O'zbekiston CrescentRating tashkiloti tomonidan tuzilgan Global Islom turizmi indeksidagi 10 pog'onaga ko'tarilib, 22-o'rinni egalladi. Shuningdek, Jahon sayyohlik tashkiloti O'zbekistonni turizm sohasida eng tez rivojlanayotgan davlatlar ro'yxatida 4-o'ringa joylashtirdi¹¹.

¹¹ M. Amonboyev A.N. Samadov SH.S. Sayfutdinov F.N. Xalimova "TURIZM MARKETINGI" Darslik.-T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" 2021 y – 290 b.

Soliqqa solishda davlat tomonidan tabaqalashgan soliq solish tizimini shakllantirish orqali adolatli soliq mexanizmini yaratishi mumkin. Yuqori daromadlilarni yuqori stavkalarda soliq to'lashini joriy qilish orqali oqilona taqsimlash siyosatini olib borsa bo'ladi. Ushbu yondashuv daromadlar tengsizligini kamaytirish va ijtimoiy adolatni rivojlantirishga qaratilgan. Davlatimiz tomonidan soliq bo'yicha tadbirkorlarga berilyapgan sharoitlarni ko'rishimiz mumkin.

Turizm korxonalarini uchun ijtimoiy soliq va aylanma soliq stavkalari 1 foiz etib belgilandi, yer solig'i va mol-mulk soliq stavkalari 90 foizga kamaytirildi.

Turistik faoliyatda alohida soliqlarning yangi turlarini ishlab chiqish orqali turizm sohasini yanada takomillashtirishga erishish mumkin. Yuqorida turizm sohasining ish bilan ta'minlash quvvatini ko'rib chiqdik. Bundan kelib chiqadiki turizmga o'ziga xos soliq tizimini yaratib, soliq yengilliklarini berish orqali turizm va unga yondosh sohalarda bo'lgan xizmatlarni ham bozordagi muvaffaqiyatsizliklardan himoya qila olgan bo'lamiz.

Soliq ma'murchiligi jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, unga kamroq vaqt sarflash va ma'lum bir soliq to'lovchiga kerakli dolzarb ma'lumotlarni tezroq olish imkonini beradi.

Yuqorida izlanuvchilarning axborotlashtiri takliflari hozirda olib qaraladigan bo'lsa kerakli takliflar hisoblanadi. Takomillashgan hisob tizimi vaqtning tejalishi imkonini berishi va axborotlarning aniqligida ahamiyati yuqori.

XULOSA

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ma'lum chegaralari ham mavjud bo'lib, ular davlatning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siridan kelib chiqadi. Iqtisodiyotga davlatning har qanday aralashuvi ma'lum xarajatlarni taqozo etadi. Ularga eng avvalo tartibga solishni tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha xarajatlarni kiritish mumkin. Shuningdek, tartibga solishning u yoki bu shakli bozor muvozanati, ishlab chiqarish hajmi, resurslarning qayta taqsimlanishiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'sirni ham hisobga olish lozim. Bunda tartibga solishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlarning miqdori davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi natijasida olinadigan samaradan kam bo'lishi lozim. Ularning nisbati davlatning iqtisodiyotga aralashuvi chegaralarini belgilab beradi.

Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

– soliq imtiyozlarini berish va uni samaradorligini baholashning mezonlari, mexanizm va yagona uslubiyati mavjud bo'lmaganligi tufayli birgina turizm sohasida samaradorligi past bo'lgan soliq imtiyozlarining berilishiga va soliq xarajatlarning oshishiga olib kelmoqda;

– investitsiya soliq imtiyozi (shu jumladan erkin turistik zona doirasida) shaklidagi soliq imtiyozi turizm sohasi sub'ektlariga bo'lgan soliq yukini kamaytirish

va ish o‘rnini yaratish bo‘yicha samaradorligi yuqori, soliq chegirmalari shaklidagi soliq imtiyozlari esa soliq yukini pasaytirish va ish o‘rnini yaratishga ta’siri nisbatan sezilarsiz. Bunda, xulq-atvor soliq imtiyozlaridan foydalanish darajasi juda past ko‘rsatkichlarni tashkil qilishi, xususan ulardan biri umuman foydalanilmagan bo‘lsa, qolganlari esa turizm sohasi sub’ektlarining foydalanish huquqiga ega bo‘lganlarning 8,9%gacha bo‘lgan qismi tomonidagina foydalanilgan;

Soliq tayinlashda quyidagicha imtiyozlarning qo‘llanilishini taklif qilish mumkin:

- Turistik xizmatlarda QQS bo‘yicha imtiyozlar belgilanishi sayyohlar uchun sayohatni yanada qulayroq qilishi va turistlar oqimining oshishiga olib kelishi mumkin;

- Turistik dam olish zonasini tashkillash bilan birgalikda mamlakat tabiatini, tarixiy me‘rosini asrab-avaylash bo‘yicha turistlarga tushuncha bera olgan va shu bo‘yicha harakatlar amalga oshirgan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari belgilanishi turizmning rivojlanishiga va mamlakatdagi tarixiy obidalarga bo‘lgan e‘tiborni kuchaytirishga ham hissa qo‘shadi;

- Mavsumiy faoliyat yurutuvchi tadbirkorlarga mavsumdan tashqari vaqtlarda ham qo‘shimcha xizmatlarni tashkil qila olsa ulrga ham yengillik yaratish;

- Sayohat va ko‘rsatilyapgan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida xodimlarini o‘qitish kurslarini tashkillagan va o‘quv treninglarini o‘tkaza olgan tadbirkorlarga imtiyozlarning qo‘llanilishi;

- Mehmonxonada ham turar joy jihozlarini yoki qo‘shimcha maydonga ega bo‘lish harakatlarida soliq vositasi bilan ularga yengillik berish;

Amaliy o‘rganish va kuzatishlar natijasida soliq yengilliklari ushbu sohaning rivojlanishida o‘zining ijobiy samarasini bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risidagi” 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni savarali amalga oshirish tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni
4. O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "Soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 359-sonli qarori
5. O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2018 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-454-sonli qonuni, 2017 yil 18 dekabr
6. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Soliq ma'muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga

- o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-455-sonli qonuni, 2017 yil 18 dekabr
7. Farmon (2020) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 iyundagi “Alohida soliq va bojxona imtiyozlarini bekor qilish to‘g‘risida”gi PF6011-son
 8. Farmon (2020) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 iyuldagi “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6019-son
 9. Qaror (2021) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 sentyabrdagi “Soliq to‘lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘rnini qoplash tartibini soddalashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 595-son.
 10. Brandt I.G. (2009) Pilgrimage, Religious Tourism from the Point of View of the Tourism Industry. Orthodox Pilgrimage: Traditions and the Present. The collection of materials of the Second all-Church conference, November 28–29, 2005. Moscow, Pp. 37–41
 11. Collins-Kreiner, N. (2010), “Researching pilgrimage: continuity and transformations”, *Annals of Tourism Research*, Vol. 37 No. 2, pp. 440-456.
 12. Cohen, E. (1998), “Tourism and religion: a comparative perspective”, *Pacific Tourism Review*, Vol. 2, pp. 1-10.
 13. Cohen, E. (1992), “Pilgrimage and tourism: convergence and divergence”, in Morinis, A. (Ed.), *Sacred Journeys: The Anthropology of Pilgrimage*, Greenwood Press, New York, NY, pp. 47-61
 14. Lennon, J. and Foley, M. (2000), *Dark Tourism the Attraction of Death and Disaster*, Cengage learning EMEA, London.
 15. Smith, V.L. (1992), “Introduction: the quest in guest”, *Annals of Tourism Research*, Vol. 19 No. 1, pp. 1-17
 16. Timothy, D.J. and Olsen, D.H. (Eds) (2006), *Tourism, Religion and Spiritual Journeys*, Routledge, London and New York, NY.
 17. Байлагасов Л.В., Гоппа М.И. (2016) О классификации паломнического туризма // Символ науки. №10-3. дата обращения: 16.12.2022.
 18. Raximov Z.O. Turizm sohasida mehmonxonalar xo‘jaligini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari.// Monografiya. – Samarqand: SamISI, 2021. 212 bet.
 19. Raxmatullaeva F. (2016) —Soliq imtiyozlarining mohiyati va iqtisodiyotni rag‘batlantirishdagi roli. *Moliya ilmiy jurnali* №2/ 108 bet.
 20. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.
 21. Демченко Д.Н. Взаимодействие государства и бизнеса: принципы, инструменты, институциональная трансформация в посткризисной экономике. Автореф. дис. канд. экон наук. Ростов-на-Дону. – 2005. – С. 15.
 22. Карманов А. О некоторых положениях правового регулирования туристического бизнеса в Краснодарском крае / А. Карманов, А. Трифонов // Кубаньбизнес. – 2010 – № 42. – С. 4-6.

23. Лебедев К.А. Совершенствование государственного регулирования в сфере туризма //Стратегия устойчивого развития регионов России. – 2014. – №. 24. – С. 139- 141.
24. Новичков В. И., Полозков М. Ю. Анализ опыта государственного регулирования туризма в развитых странах //Journal of new economy. – 2008. – №. 3 (22). – С. 46-49.8.
25. Raximov Z.O. Raqamli iqtisodiyotda raqamlashayotgan turizmning yangi turlarining rivojlanishi./ SamISIda o‘tkazilgan «Turizmدا innovatsion-investitsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari» mavzusida xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konfrensiyasi. (2020 yil, 3-iyun) – Samarqand: SamISI, 2020.
26. M. Amonboyev A.N. Samadov SH.S. Sayfutdinov F.N. Xalimova “TURIZM MARKETINGI” Darslik.-T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” 2021 y – 290 b.
27. Рамадонова М.М., Макаренченко М.А. Государственное регулирование туристической деятельности //Альманах научных работ молодых ученых университета ИТМО. – 2016. – С. 211-213.
28. Рыночные механизмы управления санаторно-курортной сферой / Л.В. Криворучко, В.И. Криворучко. – М: Финансы и статистика, 2003. – 176 с.
29. Сурков С.Г. Международный туризм в России: проблемы развития и управления / С.Г. Сурков, В.И. Криворучко. – М.: Советский спорт, 2009. – 214 с.
30. Tuxliev I.S., Hayitboev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 151-b.
31. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
32. <http://www.imv.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
33. <http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti
34. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti